

FUQAROLIK JAMIYATINING RIVOJLANISHIDA MILLIY IDENTIKLIKNING NAMOYON BO‘LISHI

Maxmudov Lazizjon Yusupovich

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti katta
o‘qituvchisi

Annotasiya. Maqolada fuqarolik jamiyatining rivojlanishida milliy identiklikning qanday namoyon bo‘lishi, mamlakatimizda milliy g‘oya va ma’naviy siyosat fuqarolarning siyosiy ishtiroki aholining o‘zligini faollashtiruvchi mexanizmga aylanib borayotganligi shuningdek, milliy o‘zlikni anglash, identiklik, fuqarolik jamiyati kabi tushunchalar tog‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Milliy identiklik, identiklik, milliy g‘oya, milliy o‘zlik, fuqarolik jamiyati, xalq, xalq ruxi, identifikasiya va boshqalar.

ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В РАЗВИТИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация. В статье говорится о заметности национальной идентичности в развитии гражданского общества, о том, что национальная идея и духовная политика граждан в нашей стране становится механизмом активизации идентичности населения, а также о таких понятиях, как понимание национальной идентичности, идентичности и гражданского общества.

Ключевая слова: Национальная идентичность, идентичность, национальная идея, национальная идентичность, гражданское общество, нация, национальный дух, идентичность и т. д.

EXPRESSION OF NATIONAL IDENTITY IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY

Annotation. The article discusses the importance of national identity in the development of civil society, the fact that the national idea and spiritual policy of citizens in our country are becoming a mechanism for activating the identity of the population, as well as such concepts as the understanding of national identity, identity and civil society.

Keywords: National identity, identity, national idea, national identity, civil society, nation, national spirit, identity, and ethnic.

Azaldan boshlab incon bolasida o‘zini anglash va boshqalardan farqlash, kim ekanligini tushunish, nacl-nacabini bilishga nisbatan tabiiy ehtiyoj shakllangan. Ushbu ehtiyoj doimiy bilish va anglash xususiyatiga ega bo‘lgan har bir individ uchun acociy xususiyatlardan biri hicoblanadi. Ya’ni o‘zini muayyan makon va zamon, xalq va davlat, qadriyatlar va madaniyat bilan identifikatsiya qilish incon

mentalligini, uning hayotiy qadriyatlarini, maqsad-muddaolari va amaliy faoliyati yo‘nalishlarini belgilaydi.

Ayni paytda, identiklik – milliy qadriyatlarni va milliy mansublikni, madaniy tajribani caqlash va davom ettirishda muhim vocita hicoblanadi. U tufayli, birinchidan, individ o‘zini boshqalar bilan qiyoclash orqali o‘z etnik “Men”ini muctahkamlash imkoniga ega bo‘ladi, ikkinchidan, etnik jamoalar, millatlar va davlatlar o‘z madaniy an‘analari, qadriyatlari, odatlarini asrash imkoniyatini saqlab qoladi.

Ushbu yo‘nalishdagi mavzularda barakali tadqiqotlar olib borayotgan Z.Odinaevaning ta’kidlashicha, milliy o‘zlikni anglash shaxsning o‘z xalqi, millatiga oid tipologik milliy-madaniy belgilarni bilishida, ya’ni xalq hayoti, mentalitetining o‘zagi, yadrosiga aylangan til, din, psixologiya, “xalq qalbi”, “xalq ruhi”, axloqiy qadriyatlar kabilarda aks etadi. Hech bir shaxs, inson ushbu tipologik belgilarsiz o‘zini u yoki bu millat, xalq vakili hisoblay olmaydi. Bugun kishilar o‘zining osoyishta va farovon yashashini ma’lum bir xalq, millat bilan bog‘lamoqdalarki, bu omil ularni o‘z etnosi atrofida yanada kuchliroq jipslashishga undamoqda.

Shuning uchun o‘zini xalqi, millati bilan aynanlashtirish, identifikatsiyalash milliy xususiyatlardan hisoblanadi. Shu ma’noda o‘zbek milliy identifikatsiyasi o‘zining uzoq tarixi davomida shakllanib rivojlanib kelgan. Yuqorida sanab o‘tganimizdek, milliy identiklikning asosini tashkil etuvchi jaryon (milliy identifikatsiya) bu – eng avvalo millatning tili va dini bilan bog‘liqdir.

Milliy identiklik va identifikatsiya masalasi 1980 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab yuzaga chiqa boshladi. Ayniqsa, sobiq ittifoq parchalanish arafasida, Yevropadagi ayrim millatlarning mustaqillikka, o‘zligini anglashga intilishi dunyodagi siyosiy jarayonlarga qam ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. Identifikatsiya muammosiga bo‘lgan qiziqishning ortib borishi global o‘zgarishlarning odamlar ongi, ularning o‘zaro, davlat va jamiyatga bo‘lgan munosabatini belgilaydigan siyosiy mexnazimlarga ta’sir ko‘rsatishi bilan boqliq. Ushbu jarayonlar siyosiy institutlar va jarayonlarning xarakterining o‘zgarishi, siyosiy mafkuralarning transformatsiyasi va millatlarning o‘zligini anglashda etnik komponentning ortib borishi bilan ham bog‘liq. Milliy identifikatsiya jarayonlari va uning mazmun-mohiyati shaxs o‘zligini anglashi hamda milliy, fuqaroviy o‘zlikni anglash bilan uzviy bog‘liq hodisadir.

Bugun butun dunyoda o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan davlatlar qatori O‘zbekiston Respublikasida ham hukm surayotgan o‘zgarishlar inson qalbida yangicha qarash, yangicha yashash jarayonlarini jadallashayotganligini his etishi mumkin. Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari, ommaviy madaniyatning avj olishiga qaramasdan o‘zbek xalqi va millati o‘z milliy o‘zligini qayta tiklashga va uni asrab avaylashga bo‘lgan ehtiyojini ortib borayotganligi bu, eng avvvalo, uning milliy identligining namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.²³

23 Odinaeva Z. Imom Buxoriyning o‘zbek milliy identikligining akseologik jihatdan shakllanishidagi roli; Yana qarang: Dunyoviylik va diniylik o‘rta asrlar Markaziy Osiyo ulamolari talqinida // Islom va dunyoviy-ma’rifiy davlat. Z.I. Munavvarov va V. Shnayder-Detersning umumiy tahriri ostida. – T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi, Fridrix Ebert jamg‘armasi, 2003. ss. 88-93.

Hozirgi kunlarda identiklik bilan bog‘liq bu dialektik dixatomiya hamda unga aloqador muammolar incon borlig‘i va mohiyatining acoclariga doir masalalarni dolzarblashtirib, bifurkatsiyaning biron-bir ehtimoliy varianti cifatida, global identifikatsiya macalacini kun tartibiga olib chiqmoqda. Bu holat har bir incon va har bir madaniyat uchun aynanlik va farqlilik nuqtai nazaridan muhim bo‘lgan «Incon nima?», «Biz kimmiz?», «Bizning boshqalardan farqimiz nima?» degan muammolar, incon borlig‘i bilan bog‘liq eng chuqur metafizik cavollardan iborat ushbu sohadagi eng muhim macalalar majmuiga aylangan.

Milliy identiklik o‘zaro dialektik munosabatda bo‘lgan ikki fundamental ijtimoiy hodisa bo‘lib, ularning o‘zaro uyg‘unligi millat hayotining barqaror tarzda taraqqiy etishi hamda demokratik tizimning mustahkamlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ijtimoiy falsafa ushbu holatni struktura, madaniyat va sub‘ektning o‘z-o‘zini anglash mexanizmlarining murakaab uyg‘unlashuvi sifatida baholanadi. Milliy identiklik fuqarolik jamiyatida nafaqat madaniy o‘zlikning tashuvchisi bo‘lib, balki fuqarolik hamkorligi ijtimoiy birdamlik hamda ijtimoiy legitimlikning asosiy manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jihatdan, milliy identiklik namoyon bo‘lishning qonunlari hamda tamoyillarini aniqlash fuqarolik jamiyati tadrijini falsafiy anglashning markaziy masalalaridan biriga aylangan.

Mazkur holatni anglash va tushunishda J.Nabermasning «kommunikativ harakat» konsepsiyasi muhim ilmiy-nazariy poydevor vazifasini o‘taydi. Nabermas qayd etib o‘tganidek «fuqarolik jamiyatining kuchi uning a‘zolari umumiy axloqiy makonda erkin muloqot qila olishi va shu muloqot jarayonida qayta ishlab chiqish qobiliyatiga bog‘liq» (Habermas, 1996, 148-bet).²⁴ Hozirgi kunda mamlakatimizda kommunikativ ochiqlikni kuchaytirishga qaratilgan siyosiy islohotlar orqali fuqarolik jamiyatida milliy identiklikning dialogik asoslari taraqqiy etmoqda. Ammo, bundan baholanish shuni anglatadiki, kommunikativ maydonning kengayishi identiklikning barqarorligini ta‘minlaydi. Bu jarayon turli qarashlar to‘qnashuvi identiklikning ichki differensiallashuviga sabab bo‘ladi.

Identiklikning fuqarolik jamiyati bilan bog‘liq holdagi qonuniyatlari chet el tajribasida ham keng tadqiq etilgan. Misol tariqasida, A.Etzionining kommunitarizm nazariyasi nazariyasi milliy identiklikning ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi axloqiy resurs sifatidagi rolini qayd etib o‘tadi. Bu olim yozadiki, «Jamiyat faqat huquqiy tartib-intizom orqali emas, balki umumiy qadriyatlarga asoslangan identiklik orqali barqarorlikka erishadi». ²⁵ Mamlakatimiz tajribasida «inson qadri», «halollik», «iymon-e’tiqod», «ma’naviy yangilanish» kabi qadriyatlarning fuqarolik jamiyati qurilishidagi o‘rni ayni shu kabi kommunitar ahamiyatga egadir. Lekin, Etzionining modeli milliy identiklikni haddan ortiq kollektivizmga bog‘lab qo‘yishi sababli tanqid ostiga olinadi. Nega deganda, zamonaviy fuqaro nafaqat jamoa a‘zosi sifatida, balki avtonom individ tarzida ham identiklik ahamiyatini beradi.

Fuqarolik jamiyatining rivojlanishida milliy identiklikning qanday namoyon bo‘lishini G. Almond va S. Verbaning siyosiy madaniyat konsepsiyasi ham izohlaydi.

24 Habermas J. Between Facts and Norms. Cambridge: MIT Press, 1996. – 148-bet.

25 Etzioni A. The Spirit of Community. New York: Crown Books, 1993. – 62-bet.

Ularning fikricha, “fuqarolik madaniyatining barqarorligi millatning o‘zini qanday anglashiga bevosita bog‘liq”.²⁶ Mamlakatimizda milliy g‘oya va ma’naviy siyosat fuqarolarning siyosiy ishtiroki aholining o‘zligini faollashtiruvchi mexanizmga aylanib bormoqda. Ammo, siyosiy madaniyatning yuqoridan shakllantirilishi milliy identiklikni sun’iy konstruktsiya sifatida qabul qilinish xavfini yeltirib chiqaradi. Shuning uchun identiklikni yuzaga chiqaruvchi holatlar tabiiy ijtimoiy dinamikaga ham tayangan bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Habermas J. Between Facts and Norms. Cambridge: MIT Press, 1996.
2. Etzioni A. The Spirit of Community. New York: Crown Books, 1993.
3. Almond G., Verba S. The Civic Culture. Princeton University Press, 1963.
4. Putnam R. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. New York: Simon & Schuster, 2000.
5. Giddens A. Modernity and Self-Identity. Cambridge: Polity Press, 1991.
6. Hall S. Cultural Identity and Diaspora. London: Routledge, 1996. – 4-bet.
7. Lotman Yu. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture. Bloomington: Indiana University Press, 1992.
8. Waldenfels B. Topographie des Fremden. Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1997.
9. Ricoeur P. Time and Narrative. Vol. 3. Chicago: University of Chicago Press, 1988.
10. Abilov O‘. Milliy g‘oya: ma’naviy omillar. – T.: Ma’naviyat, 2004.
11. Abilov O‘. “Optimistik evolyusiya: tafakkur, ma’naviyat, mafkura”. – Toshkent, “Fan ziyosi”, 2023.
12. Madaeva Sh.O. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur: (XX asr saboqlari va XXI asr istiqbollari). – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007. – B. 112.
13. Madaeva Sh. Identiklik antropologiyaci. – T., “Noshir”, 2015. –25 6.

²⁶ Almond G., Verba S. The Civic Culture. Princeton University Press, 1963. – 41-bet.